

Talabalarda kasbiy kompetentsiyaning shakllanishi

Ma'murova Feruza Tojimatovna
nammqi2007@gmail.com
katta o'qituvchi
Namangan davlat texnika universiteti

Nuriddinov Akmal Davlatalievich
a_nuriddinov@mail.ru
Dotsent
Namangan davlat texnika universiteti

Abdullaeva Muxlisa Akmaljon qizi
m.abdullaeva@gmail.com
O'zbek tili filologiyasi 4-bosqich talabasi
Namangan Davlat Universiteti

Annotatsiya: Zamonaviy dunyo har bir mutaxassis kaddan o'z bilimlarini tinmay boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, shu kun va davr talablarini his etishni, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, ularni qayta ishlashni hamda o'z amaliy faoliyatida qo'llashni talab qiladi. Ushbu maqola orqali muallif bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lgan talabalarda kasbiy kompetentsiyaning shakllanishi hamda xorijiy mamlakat olimlari tomonidan kompetentsiya tushunchasi va uning turlari keng o'rganilganligini yoritilgan.

Kalit so'zlar: kompetentlik, bilim, mahorat, ko'nikma, o'zini rivojlantirish va o'zini ko'rsatish, kasbiy bilim, psixologik fazilatlar, kasbiy mahorat.

Формирование профессиональной компетентности у студентов

Мамурова Феруза Тожиматовна
nammqi2007@gmail.com
Старший преподаватель
Наманганский государственный технический университет

Нуриддинов Акмал Давлаталиевич
a_nuriddinov@mail.ru
Доцент
Наманганский государственный технический университет

Абдуллаева Мухлиса Акмалжон кизи
m.abdullaeva@gmail.com
Студентка 4-го курса узбекской филологии
Наманганский государственный университет

Аннотация: Современный мир от каждого специалиста требуется постоянно обогащать свои знания, изучать новую информацию, ощущать требования времени и эпохи, овладевать навыками поиска новых знаний, их обработки и применения в своей практической деятельности. В данной статье автор освещает одну из актуальных проблем сегодняшнего дня – формирование профессиональной компетентности у студентов, а также раскрывает понятие компетентности и её виды, которые были широко изучены учёными зарубежных стран.

Ключевые слова: компетентность, знания, мастерство, навыки, саморазвитие и самовыражение, профессиональные знания, психологические качества, профессиональное мастерство.

Formation of professional competence in students

*Ma'murova Feruza Tojimatovna
nammqi2007@gmail.com
Senior Lecturer
Namangan State Technical University*

*Nuriddinov Akmal Davlatalievich
a_nuriddinov@mail.ru
Associate Professor
Namangan State Technical University*

*Abdullaeva Mukhlisa Akmaljon kizi
m.abdullaeva@gmail.com
4th-year student of Uzbek Philology
Namangan State University*

Annotation: Nowadays, every specialist is required to continuously enrich their knowledge, study new information, understand the demands of the present time, develop the ability to seek new knowledge, process it, and apply it in their practical activities. In this article, the author highlights one of the most pressing issues of today - the formation of professional competence in students. Additionally, the article explores the concept of competence and its types, which have been extensively studied by scholars from foreign countries.

Keywords: Competence, knowledge, mastery, skills, self-development and self-expression, professional knowledge, psychological qualities, professional mastery.

Adabiyotlar tahlili. Xorijiy davlat ta'lim tizimidagi adabiyotlarga hamda o'zbek olimlari tomonidan yo'zilgan adabiyotlardan, jumladan, N.A.Muslimov – p.f.d., professor; Q.M.Abdullaeva, O.A.Qo'ysinov, N.S.Gaipova – p.f.n., dotsentlar; N.N.Karimova, M.Qodirov – ilmiy xodimlar. “Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi.” (Monografiya) – T.: «Fan va texnologiya», 2013 yilda yozilgan bu adabiyotlarda asosan oliy o'quv yurti talabalarida kasbiy kompetentsiyaning shakllanishi va kasbiy kamoloti masalasi bayon etilgan[9].

Prezident Sh.M.Mirziyoyev “Oldimizga yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli sohalarda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha murakkab vazifalar turibdi”, [8. b 45] deya bugungi kunda har qanday kasb egasi har tomonlama rivojlangan, o'z kelajagini yorqin tasavvur qila oladigan, bu borada kelajagiga ongli munosabatda bo'lib, turli faoliyatlarda o'z-o'zini rivojlantira oladigan erkin, faol, o'ziga, atrofdagi odamlarga, jamiyatga, tabiatga va mehnatga o'zining to'g'ri munosabatini bildiradi oladigan, mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan, innovatsion g'oyalarni bera oladigan, yaratuvchan, ijodkor va faol tadbirkor bo'lishi lozimligini takidlab o'tgan edi.

Oliy o'quv yurti talabalarida kasbiy kompetentsiyaning shakllanishi va kasbiy kamoloti masalasi juda katta ijtimoiy, iqtisodiy ahamiyatga ega dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Shu o'rinda “Kompetentlik” so'zini izohlab o'tadigan bo'lsak “Kompetentlik” tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik “noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish

rejasiga egalik”ni anglatadi.

Inglizcha «competence» tushunchasining lug’aviy ma’nosi «qobiliyat» demakdir, biroq kompetentsiya atamasi bilim, ko’nikma, mahorat va qobiliyatni ifoda etishga xizmat qiladi[6].

G’arb mamlakatlarida shakllangan an’anaga muvofiq mutaxassisning kasbiy malakasi uning kompetentlik, ta’lim tizimi esa –bilim, ko’nikma va malakalar darajasi bilan o’lchanadi.

Xorijiy mamlakatlarda an’anaga muvofiq ishchining bilim va malakalarining o’ziga xususiyati hisoblangan mutaxassislik (malakaviy) standartlari ishlab chiqiladi. Ushbu standart natijagina (nimaga erishilishi kerak) qayd etadi.

Kompetentsiya o’z bilimlarini tinmay boyitib borishni, yangi axborotlarni o’rganishni, shu kun va davr talablarini his etishni, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, ularni qayta ishlashni hamda o’z amaliy faoliyatida qo’llashni talab qiladi. Kompetentsiya egasi bo’lgan mutaxassis muammolarni yechishda o’zi o’zlashtirib olgan, aynan shu sharoitga mos metod va usullardan foydalanishni yaxshi bilishi, hozirgi vaziyatga munosib bo’lgan metodlarni tanlab olib qo’llashi, to’g’ri kelmaydiganlarini rad etishi, masalaga tanqidiy ko’z bilan qarashi kabi ko’nikmalarga ega bo’ladi.

D.L.Tompson, D.Pristinlar: «Kasbiy kompetentlik - ishda kerak bo’lgan bilimlarning va barcha axloqiy qoidalarning yig’indisidir», - deb ta’kidlaydilar[1].

I.V.Grishina kasbiy kompetentsiya shaxsning o’z professional faoliyatini qanchalik darajada egallaganligi, deb baho beradi va quyidagicha ta’riflaydi:

- ushbu faoliyatga bo’lgan munosabati, unga zarurat va qiziqishi, intilishlari, qadriyatlari, faoliyatdan maqsadi, o’zining ijtimoiy o’rnini tasavvur qilishi;

- o’zining shaxsiy o’ziga xosligi va mutaxassis sifatidagi mavqeiga, kasbiy bilim, mahorat va ko’nikmalari, kasbiga xos boshqa xususiyatlariga baho berish;

- shu asosda o’zini kasbiy jihatdan shakllanishini va o’sishini boshqara bilishi[3].

Psixologiyada I.N.Shpilrien, S.G.Gellershteyn, Y.A.Klimov, V.D.Shadrikov, K.K.Platonov, N.V.Kuzmina fikrlariga ko’ra hayotda yuz beradigan turli vaziyatlarni, muammolarni yechishga yordam beradigan fazilatlar, qobiliyatlar kompetentlik deb tu-shuntiriladi. Kasbiy kompetentlik – bu qaysidir kasbda bor bo’lgan standartga rioya qilish.

A.P.Akimova kasbiy kompetentlikni shunday ta’riflaydi: «O’z faoliyatida kerak bo’lgan yangiliklarning, bilimlarning, qobiliyatlarning yig’indisi va atrof muhit bilan o’zaro to’g’ri kelishi».

Pedagogik kompetentlik pedagogik mahorat tushunchasiga bog’liqligini N.V.Kuxarev shunday ta’riflaydi: «Psixologik – pedagogik tayyorgarligidan kelib chiqadigan o’qituvchi shaxsining aniq sifatlarini va pedagogik masalalarini eng samarali usulda yechadigan fazilatlar to’plami»[2].

A.K.Markova o’qituvchini kasbiy kompetentlikka ega bo’lgan o’qituvchi deb aytadi, qachonki pedagogik faoliyatini, pedagogik muomalani yetarlicha yuqori darajada oshirsa, yoshlarni o’qitishda va tarbiyalashda yuqori natijalarga erishsa. Kompetentli o’qituvchi o’zining kasbiy bilimlarini, psixologik fazilatlarini o’z mehnatida qo’llashni bilishi kerak.

A.K.Markova eng ko’p o’qituvchi mehnatining kasbiy kompetentligi asoslarini qidirgan pedagog olim. A.K.Markova fikri bo’yicha o’qituvchining mehnati kompetentlikka aylanadi qachonki o’qituvchi o’z faoliyatini yetarlicha yuqori hamda talaba va talabalarni o’qitish va tarbiyalashni yuqori darajada amalga oshirgan[4]. Ushbu asoslar bilan birga o’qituvchining kasbiy kompetentligini to’rtga bo’lib o’rganadi:

1). Maxsus yoki faoliyatli kasbiy kompetentlik – bu faoliyatni yuqori kasbiy darajada olib borishi. Maxsus kasbiy kompetentlik nafaqat maxsus bilimlardan, balki bu bilimlarni amalga oshirishdan iborat;

2). Ijtimoiy kompetentlik – bu qo’shimcha faoliyatni olib borish yo’llarini bilish, hamkorlikda bajarish yo’llarini bilish;

3). Shaxsiy kompetentlik – o’zini rivojlantirish va o’zini ko’rsatish yo’llarini bilish (mutaxassis o’zining faoliyatini rejalashtirish, mustaqil qaror qilish, ma’lumotlar bilan va o’z ustida ishlash).

4). Individual kompetentlik – bu o’zini boshqarish yo’llarini bilish, kasbiy rivojlanishga tayyorgarlik va kasbiy yangiliklar yaratish. Shu bilan birga o’qituvchining bilimlari yangiliklar bilan

boyigan bo'lishi, psixologik va pedagogik fazilatlar yuqori darajada bo'lishi.

R.X.Tugeshevning ta'kidlashicha, kasbiy mahorat shaxs sifatining yuksalishi sari qo'yilgan qadamlar yordamida faqat bir faoliyat uchun egallangan kompetentsiyadir. Kompetentsiya egasi deganda, olim shaxsning o'z ishining ustasi, mahorati bilangina cheklanmaydi, balki ishni tashkil etishi, o'z faoliyatiga aloqador barcha muammolarni tizimli ravishda tushunishi, vazifa qo'ya bilishi va aniq muammolarga yechim topish qobiliyatiga ega bo'lishi kabi fazilatlarini nazarda tutadi. Ana shunday inson ma'lum bir sohada kompetentsiya egasi degan nomga sazovor ekanligini qayd etadi. Agar R.X.Tugeshev kompetentsiya tushunchasini kasbiy mahorat degan tushuncha bilan bir xil ekanligini qayd etsa, E.F.Zeer esa kasbiy yo'naltirilgan kompetentsiya va kasbiy qobiliyat oliy darajadagi kasbiy mahoratni ta'minlaydi, degan fikrni olg'a suradi[7].

Kasbiy kompetentsiya shaxsning sub'ektiv faoliyati tarkibidagi to'rt jihatning biri hisoblanib, E.F.Zeer ta'kidlaganidek, kasbiy kompetentsiya o'z kasbiga oid bilimlar, mahorat hamda kasbiy faoliyatni amalga oshirish usullari yig'indisidir.

Kasbiy kompetentsiya fenomenini «tayyorgarlik» tushunchasi bilan qiyoslash keng tarqalgan. V.A.Slastenin nuqtai nazariga ko'ra, mutaxassisning kasbiy kompetentsiyasi tushunchasi uning nazariy va amaliy tayyorgarligi shaxs umumiy tayyorgarligi tizimi tarkibiga kirib, kasbiy mahorat, uning kasbiy darajasini belgilaydi [2. b17-21].

Talabalarda kasbiy kompetentsiyaning shakllanishi, o'ziga xos psixik asoslarga ega bo'lib, birinchi navbatda odamning shaxsiy xususiyatlari muhim o'rin egallaydi. Shu bilan birga kasbiy kompetentsiya, talabadan ya'ni bo'lg'usi mutaxassisdan kerakli darajada jismoniy sog'likni kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan jismoniy sifatlar shakllanganligi va rivojlanganligini talab qiladi. Chunki har qanday kasbiy faoliyat insoning qandaydir kuch jismoniy energiya sarflashini talab qiladi.

Talaba yoshlarning bo'lg'usi kasbiy faoliyatga dastlabki salohiyatli tayyorligi bevosita ayni vaqtdagi tayyorligining asosi hisoblanadi. Shuning uchun talaba yoshlarning oliy o'quv yurtida tayyorlash unda kasbiy faoliyat uchun yetarli bo'lgan sifatlarni shakllantirish lozim. Ba'zi vaqtlarda hatto kasbiy masalalarni hal etishga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan mutaxassis ham zarur paytda kerakli faoliyat uchun tayyor bo'lmay qolishi mumkin ya'ni kasbiy xulqi va faoliyatini ruhiy boshqarish yetarli darajada bo'lmaydi. Bunday holatda faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirib bo'lmaydi yoki samarasiz bo'ladi.

Ko'rinib turibdiki talabalarda kasbiy kompetentsiyaning shakllanishi unda kasbiy bilimdonlikni kerakli darajasini kasbiy tasavvurni hamda o'zini boshqarish, o'zini kerakli faoliyatga yo'naltirishga o'zining kasbiy (ma'naviy shaxsiy va jismoniy) imkoniyatlarini hal etishga yo'naltira bilish qobiliyati mavjudligini nazarda tutadi.

Hozirgi zamon bo'lg'usi mutaxassisning kasbiy kompetentsiyani shakllanishida uning kommunikativ tayyorligi alohida ahamiyatga ega. Bunday tayyorgarlik mutaxassisda odamlar bilan kasbiy muhit bilan konstruktiv va samarali o'zaro yaqin aloqalar xodimlar, rahbarlar bilan amaliy hamda shaxsiy o'zaro munosabatlarga tayyorligi, bunday o'zaro munosabatlarni o'rnatishga, uni rivojlantirishga qodirligini ko'zda tutadi[5].

Shaxsning kommunikativ tayyorligi faqatgina odamning nutqiy madaniyati yetarlicha darajada rivojlanganligida u so'z va tildan to'g'ri foydalanishni bilganidagina mavjud bo'ladi. Shaxsning nutqiy madaniyati uning fikrlash madaniyati rivojlanganligining ko'rsatkichi hisoblanadi. Shuning uchun mutaxassisning shaxsiy va kasbiy kamol topishini muhim shartlaridan biri uning kasbiy nutqiy madaniyatini rivojlantirish hisoblanadi.

Bo'lg'usi mutaxassisning kommunikativ tayyorligi unda empativlikni, xushmuomalalikni, do'stonalilikni, o'rtoqlik hissini, jamoatchilikni rivojlantirishni, kasbdoshlari bilan o'zaro aloqalar munosabatlarga tayyorligi va qodirligini o'zaro munosabatlarda keraksiz keskinliklarni yuzaga keltirmaslikni yuzaga kelgan qiyinchilikni to'g'ri hal eta bilishni ishda xodimlar, kasbdoshlari bilan munosabatlarda murosaga kelishni ko'zda tutadi.

Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, talabalarda kasbiy kompetentsiyaning shakllanishi, mutaxassislik fanlari bilan birga psixologik bilimlarni puxta egallashi va amalda bu bilim ko'nikmalardan samarali

foydalana olishlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlik borligini ko'rsatadi[6]. Shuning uchun mutaxassisning tayyorgalik jarayonida yuzaga keladigan ob'ektiv va sub'ektiv omillar rolini o'rganish muhimdir. Ayniqsa, mutaxassis shaxsini nazariy bilimlar bilan qurollantirish bilan birga amaliy bilim, tajriba va ko'nikmalarni shakllantirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Айзенк, Г. (2003). Новый IQ тест. Эксмо.
2. Abdullaeva, N., Mamurova, F., & Mallaboev, N. (2020). Efficiency of experimental preparation use multimedia to enlarge some questions. Экономика и социум, (6), 11-13.
3. Abdullaeva, N., Mamurova, F., & Mallaboev, N. (2020). Tajriba mashg'ulotlari samaradorligini oshirishda multimediyadan foydalanishning aytim masalalari. Экономика и социум, (6 (73)), 11-13.
4. Karimova, V.M. (2000). Psixologiya (ma'ruzalar matni) [Psychology (lecture text)]. ТДЮИ.
5. Mamurova, F. T., & Abdullaeva, N. K. (2020). Choose a special student psychological methods. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2 (3), 525-529.
6. Mamurova, F. T., Abdullayeva, N. K., & Qahhorovna, S. M. (2020). Innovative approach and modern trends in the development of science and education. Journal of Critical Reviews, 7 (7), 1061-1063.
7. Mamurova, F. T., Abdullayeva, N. K., & Mallaboyev, N. (2019). Using the «assessment» method in assessing students knowledge. Theoretical & Applied Science, 11 , 80-83.
8. Mirziyoev, Sh.M. (2017). Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatning kundalik qoidasi bo'lishi kerak [Critical analysis, strict discipline and personal responsibility - should be the daily rule of every leader's activity]. Tashkent.
9. Muslimov, N.A., Abdullaeva, Q.M., Qo'ysinov, O.A., Gaipova, N.S., Karimova, N.N., & Qodirov, M. (2013). Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi [Technology for forming the professional competence of vocational education teachers] (Monografiya). Fan va texnologiya.
10. Маъмурова, Ф., & Абдуллаева, Н. (2019). ТРЕНИНГ РАЗВИТИЯ СПОСОБНОСТИ МЫШЛЕНИЯ РЕБЕНКА. Экономика и социум, (4 (59)), 501-504.